

## ARAB TILIDAGI ASOSIY LAHJALARING KELIB CHIQISHI, RIVOJLANISHI VA LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

*Ergasheva Mohizarbegim Elmurod qizi,*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 3-bosqich talabasi*

## ORIGIN, DEVELOPMENT AND LINGUISTIC FEATURES OF THE MAIN DIALECTS OF THE ARABIC LANGUAGE

*Ergasheva Mohizarbegim Elmurod qizi,*

*is a third-year student of Tashkent State University of Oriental  
Studies*

## ПРОИСХОЖДЕНИЕ, РАЗВИТИЕ И ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ОСНОВНЫХ ДИАЛЕКТОВ АРАБСКОГО ЯЗЫКА

*Эргашева Мохизарбеким Элмуродовна,*

*студентка третьего курса Ташкентского государственного  
университета востоковедения*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada arab tilining asosiy shevalarining kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari hamda ularning o‘zaro farqlari lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari arab tilining dialektologiyasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

**Abstract:** This article analyzes the origins, stages of development, and differences between the main dialects of the Arabic language from a linguistic perspective. The results of the research contribute to a deeper understanding of the dialectology of the Arabic language.

**Аннотация:** В статье анализируются источники, этапы развития и различия между основными диалектами арабского языка с лингвистической точки зрения. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию диалектологии арабского языка.

**Kalit so‘zlar:** lahja, arab adabiy tili(fusha), dialekt, fonetika, tilshunoslik, hududiy farq, amiy til, dialektologiya, Misr, Shom va Mag‘rib shevalari.

**Key words:** dialect, Arabic literary language (fusha), dialect, phonetics, linguistics, regional differences, colloquial language, dialectology, Egyptian, Levantine and Maghreb dialects

**Ключевые слова:** диалект, арабский литературный язык (фуша), диалект, фонетика, лингвистика, региональные различия, разговорный язык, диалектология, египетский, левантийский и магрибские диалекты.

**Kirish.** Arab tili dunyoning eng qadimiylari va boy tillaridan biri bo‘lib, bugungi kunda turli mamlakatlarda 400 milliondan ortiq kishi tomonidan so‘zlashuv tili sifatida qo‘llaniladi. Bu til ikki asosiy shaklga ega: rasmiy adabiy shakl – fusha va og‘zaki nutqdagi lajhalar (ammiyilar).

Fusha – Qur’oni karim tili bo‘lib, adabiyot, matbuot, ta’lim va rasmiy hujjalarda qo‘llaniladigan normativ shakldir. Biroq, arab dunyosining har bir hududida ushbu rasmiy tilga nisbatan fonetik, leksik va grammatik jihatdan

sezilarli farqlarga ega bo‘lgan og‘zaki shevalar – lahjalar shakllangan.

Lahjalar arab tilining tabiiy rivojlanish jarayonida vujudga kelgan bo‘lib, ular ijtimoiy, madaniy va tarixiy omillar ta’sirida shakllanadi. Lahjalarning mavjudligi ko‘pchilik arab tilini o‘rganuvchilar uchun murakkablik tug‘diradi, ayni paytda tilshunoslikda bu hodisa muhim tadqiqot obyekti sanaladi. Lahjalar orqali xalqning kundalik hayoti, milliy mentaliteti, tarixiy-madaniy merosi aks etadi. Ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish nafaqat til taraqqiyoti bosqichlarini aniqlash, balki zamonaviy arab jamiyatlari o‘rtasidagi kommunikativ aloqalarni tahlil qilish imkonini ham beradi.

Mazkur mavzuning dolzarbliги shundaki, arab tilining adabiy va sheva shakllari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar hozirgi zamon global kommunikatsiyasi, tarjima, ta’lim va ommaviy axborot vositalari faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqotning ilmiy yangiligi esa lahjalarning strukturaviy xususiyatlari hamda ularning adabiy til bilan o‘zaro ta’siri, shuningdek, ularni tilda tutgan o‘rnini zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida chuqr tahlil qilish bilan belgilanadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – arab tilining eng keng tarqalgan va muloqotda faol qo‘llaniladigan asosiy lahjalar, jumladan, misriy (Misr hududi), shomiy (Levant hududi), mag‘ribiy (Shimoliy Afrika) va xalijiy (Arabiston yarimorolji) lahjalarning kelib chiqishi, tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda fonetik, morfologik, leksik va sintaktik xususiyatlarini tizimli ravishda o‘rganishdan iborat. Tadqiqotda bu lahjalarning adabiy arab tilidan qanchalik uzoqlashgani yoki unga qanchalik yaqin qolgan jihatlari ham tahlil qilinadi.

Tadqiqot quyidagi asosiy savol doirasida olib boriladi: arab tilidagi asosiy mintaqaviy lahjalarning shakllanishi va o‘ziga xosliklariga qanday omillar – tarixiy, ijtimoiy, geografik va madaniy ta’sir ko‘rsatgan?

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya.**

Ushbu maqolada arab tilining mintaqaviy lahjalar – xususan, Misr, Levant, Xalij va Mag‘rib lahjalarini fonetikasi, leksikasi va morfologik xususiyatlari o‘rganildi. Tahlil jarayonida sifat jihatidan taqqoslov va deskriptiv metodlardan foydalanildi. Maqola uchun asosiy material sifatida turli

mintaqalarda qo‘llaniladigan og‘zaki va yozma manbalar, ijtimoiy tarmoqlardagi matnlar hamda kundalik muloqot namunalari tanlab olindi.

Maqolani yozishda arab lahjalar bo‘yicha zamonaviy maqolalar va klassik o‘quv qo‘llanmalardan foydalanildi. Ushbu manbalar orqali dialektlarning lingvistik xususiyatlari bilan birga, ularning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi o‘rni ham tahlil qilindi. Tadqiqotda muqoyasaviy tilshunoslik va sosiolingvistik nazariyalariga tayanildi.

**Muhokama.** Ushbu tadqiqot natijalari arab tilining to‘rtta asosiy mintaqaviy lahjasi – Misr, Livan, Xalij va Mag‘rib lahjalar – fonetik, leksik va morfologik jihatdan sezilarli darajada tafovutlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Arab davlatlari nisbatan katta geografik hududda joylashganligi, qolaversa, ularning soni 22 tani tashkil etishi lahjalarning shakllanishiga asosiy turtki bo‘ldi. Lahjalar orasidagi farqlar ulardagi harflarning almashinishi, bir harfning boshqa harf bilan almashtirilishi yoki boshqa harfning qo‘shilishi kabi til xususiyatlariga asoslanadi. Har bir lahja o‘z hududining tarixiy, madaniy va sotsiolingvistik omillari ta’sirida shakllangan bo‘lib, ularning shakllanishida kolonializm, islomiy huquq maktablari, zamonaviy siyosiy va iqtisodiy aloqalar muhim rol o‘ynagan.

Statistik ma’lumotlarga qaraganda arablarning Misr shevasida so‘zlashuvchilar soni jihatidan birinchi o‘rinda turadi. Keyingi o‘rinlarda Mag‘rib, Xalij, Levant dialektlari turadi. Birgina Misr lahjasidan taxminan 100 mln. nafar insonlar foydalanishadi. Har bir lahjaning paydo bo‘lish tarixi va omillari mavjud. Ba’zi manbalarda esa arab tilida 9 ta asosiy lahja mavjud deb qaraladi. Xususan, Doktor Muhammad Riyod o‘zining “Al-Muqtabas fi lahjat al-arab” kitobida arab tili eng qadimgi davrlardan boshlab ko‘plab alohida shevalarga bo‘linganligini, har bir qabila va har bir birlashgan guruh o‘z shevasiga ega ekanligini ta’kidlaydi. Bu shevalarga savdo, haj paytidagi qabila yig‘inlari, bozorlar va ichki urushlari tufayli o‘zaro aloqa qilish imkoniyati berilgan. Ko‘zga ko‘ringan tilshunos olimlar shevalarga batafsil to‘xtalib, ularning kelib chiqish sabablari va hodisalarini ko‘rsatib o‘tganlar. Misrlik yozuvchi Mustafo Sodiq ar-Rofiiy o‘zining “Arab adabiyoti tarixi” asarida bu borada katta sa’y-harakatlar qilib, arab dialektikasiga o‘z hissasini qo‘shgan.

Misr lahjasi – dunyodagi eng keng tarqalgan arab dialektlaridan biri bo‘lib, taxminan 100 milliondan ortiq (yangi statistikaga ko‘ra) kishi tomonidan ishlatiladi. Uning ommabopligi, ayniqsa, Misrning kino, musiqa va media sanoatidagi yetakchi mavqeい bilan bog‘liq. Shuningdek, arab bo‘lmagan o‘rganuvchilar ham uni boshqa lahjalarga nisbatan oson va tushunarli deb topib, afzal ko‘rishadi. Misr shevasi boshqa shevalar kabi tarixiy o‘zgarishlardan himoyalanmagan. Uning o‘zgarishi va shakllanishiga urush va ko‘chishlar, xususan, mahalliy til va bosqinchi til o‘rtasidagi ziddiyatlar sabab bo‘lgan. Tarixan bu lahjaga fransuz, italyan, turk, yunon va ingliz tillari ta’sir ko‘rsatgan. Misrda arab tili VII asrda islom dini bilan kirib kelgan.

Misr shevasida ayrim fonetik farqlar mavjud. Jumladan, uch sonini (ثلاثة) (“thalatha” demay, “talata” holida talaffuz qilinadi. Ya’ni chuchuk s tovushi t tovushi bilan almashadi. “Jim” tovushi esa ko‘pincha “g” deb ishlatiladi. Tuya (جمل) so‘zini “jamal” emas, balki “gamal” holida aytishadi. Ba’zida “Qof” harfini hamzaga aylantirib, talaffuz qilishadi. Masalan, qalb (قلب) so‘zini “qalb” emas, “alb” holida ishlatishadi.

Misr lahjasi nafaqat tarixiy va madaniy, balki lingvistik jihatdan ham o‘ziga xos bo‘lib, arab tilshunosligi sohasida muhim mavzulardan biridir. Qohira kabi yirik shaharlarda so‘zlashuvchi Misr arab tilini “J” o‘rniga “G” tovushini qo‘llash orqali darhol tanib olish mumkin. Demak, “Jamol”, “Ja’far” va “Jamila” o‘rniga “Gamal”, “G’afar” yoki “Gamila” ismlarini qo‘yuvchilar misrliklar bo‘lish ehtimoli ko‘proq.

Levant dialekti – Shom (Levant)dagi so‘zlashuv tili Levant lahjasidir. Bu atama Arab O‘rta Yer dengizining sharqiy qirq‘og‘idan Mesopotamiya chegaralarigacha cho‘zilgan qismini anglatadi. Shom shuningdek, tarixiy yoki kattaroq Suriya sifatida ham tanilgan bu hudud Suriya, Falastin, Iordaniya va Livanni o‘z ichiga oladi. Levant lahjasida so‘zlashuvchilar soni hozirda ushbu to‘rtta mamlakat bo‘ylab tarqalgan taxminan 50 million kishini tashkil qiladi.

Levant lahjasi ommaviy axborot vositalari va televideniya kanallarida eng ko‘p gapirladigan ikkinci dialektdir. U Suriya teleseriallari va Suriya lahjasida dublyaj qilingan turk seriallarining

keng miqyosda ishlab chiqarilishi natijasida mashhur bo‘ldi va bu vaqt o‘tishi bilan uni arablar uchun tushunarli qildi.

Levant shevasi boshqa arab shevalariga nisbatan o‘ziga xos fonetik va leksik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bunga o‘tmishda o‘sha hududlarda keng tarqalgan oromiy va suriya tillari katta ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, ba’zi hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, Livan lahjasining grammatik tuzilishining taxminan 50% suriy tiliga o‘xshashligicha qolmoqda. Bu o‘sha paytda Livanda keng tarqalgan oromiy tilidan olingan dialektlardan biridir.

Arab adabiy tiliga aynan Levant shevasi eng yaqinidir. Arab mamlakatlarida: Levant, Iordaniya, Suriya va Falastinda gapirladi. Rus tilidagi adabiyotda Levantning arab lahjalari Suriya-Falastin yoki oddiygina Suriya dialekti, ingliz va arab tilidagi versiyalarida esa “Levant arab” deb ataladi.<sup>1</sup>

Ko‘rfaz lahjasi (Xalij), asosan, Quvayt, BAA, Qatar, Bahrayn, Saudiya Arabiston, Iraq, Ummon va Eronning ayrim hududlarida tarqalgan dialekt bo‘lib, 57 millionga yaqin inson tomonidan qo‘llaniladi. Lahja qadimiy arab qabilalarining tili va Ko‘rfaz mintaqasining tarixiy-madaniy ta’siri asosida shakllangan. Unda fonetik o‘zgarishlar (masalan, qof harfining jim, kaf yoki g‘ayn bilan almashtirilishi, hamzaning soddalashtirilishi) va morfologik xususiyatlar mavjud bo‘lib, mintaqaviy farqlarga qaramay o‘zaro tushunarli saqlanadi. “Qof” harfini turli xil tovushlarga o‘zgartirish va xuddi Misr shevasidagidek so‘z boshida kelgan “qof”ni hamzaga aylantirish hodisalari bu lahjada ham mavjud.

Mag‘rib lahjasi arab tilining g‘arbiy dialektlar guruhiga kirib, Marokash, Jazoir, Tunis, Liviya va Mavritaniya kabi davlatlarda keng qo‘llaniladi va 70 mln. Dan ortiq arablar ushbu shevada gaplashishadi. Bu lahja berber, fransuz, ispan va italyan tillari ta’sirida shakllanib, fonetikasi, grammatikasi va lug‘aviy tarkibi bilan adabiy arab tilidan keskin farqlanadi. Masalan, qof tovushi ko‘pincha /g/ yoki /q/ tarzida talaffuz qilinadi, zamon ifodasida “g‘adi” kabi yordamchi so‘zlar ishlatiladi, ko‘plik shakllari, raqamlar va fe’l tizimida sezilarli o‘zgarishlar mavjud bo‘lib, ayrim hollarda bu lahja arab tilidan alohida til darajasida

<sup>1</sup> Wikipedia.uz sayti

<https://creativecommons.org/licenses/by-sa/4.0/>

baholanadi. Ko‘pchilik tilshunoslar va arab tilini o‘rganuvchilar uchun eng murakkab va qiyin lahja – bu Marokash (Mag‘rib) lahjasidir.

Leksik tahlil davomida aniqlanishicha, kundalik so‘zlar ham lahjalar o‘rtasida katta tafovutlarga ega. Misol uchun, hozir so‘zi Livanda hala, Misrda dilwa’ti, Xalijda alhīn, Mag‘ribda esa daba shaklida ishlatiladi. Bu esa lahjalarning semantik darajadagi farqlarini va o‘zaro tushunishga bo‘lgan ta’sirini ko‘rsatadi.

Morfologik jihatdan, ba’zi lahjalarda fe’l zamонлари ўоки замон affikslari fusha tilidan farqli tarzda shakllanadi. Masalan, Xalij va Mag‘rib lahjalarida замон ко‘rsatkichlari ancha soddallashtirilgan va og‘zaki shaklga moslashtirilgan. Ayniqsa, Mag‘rib lahjasida fusha grammatikasidan keskin chetlashish holatlari kuzatildi.

Arab davlatlarida turli xil dialektlar mavjud bo‘lsa-da, arablar uchun umumiyl til shakli, ya’ni arab adabiy tili (fusha) tilning xilma-xil bo‘lishi, ajralib ketishining oldini oladi. Arab tili o‘rganuvchilar ham aynan fushani o‘rganishni tanlashadi. Arab adabiy tili (fusha) – arab tilining standart shakli bo‘lib, u adabiyot, ommaviy axborot vositalari, ta’lim va rasmiy muloqotda qo‘llanadi. Bu til islom dini bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, Qur’on tili sifatida alohida hurmatga sazovor. Yuqorida keltirilganidek, arab adabiy tili, arab tilining turli lahjalaridan farqli o‘laroq, barcha arab dunyosida tushuniladigan yagona standart til hisoblanadi. Qolaversa, fusha qadimgi arab she’riyati va nasriga asoslangan bo‘lib, islomgacha bo‘lgan davrlarga borib taqaladi. Arab adabiy tili islomning muqaddas kitobi Qur’oni Karimning tili sifatida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bugungi kunda arab adabiy tili rasmiy hujjatlarda, matbuotda, radio va televideniyeda, ta’lim muassasalarida, shuningdek, adabiyotda va san’atda qo‘llaniladi. Tilning ushbu ko‘rinishi juda katta so‘z boyligiga ega va ko‘plab ilmiy va adabiy asarlarning manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Arab tili mintaqaviy jihatdan boy va xilma-xil bo‘lib, undagi lahjalarning fonetik, leksik va grammatic jihatdan farqlanishi til o‘rganish va tarjima jarayonida muhim omil sifatida qaraladi. Til o‘rganuvchilar ko‘pincha adabiy tili bilan bir qatorda turli lahjalarning qo‘llanilishi sababli tushunishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Xususan, bir so‘zning ma’nosini bir lahjada neytral

bo‘lsa, boshqasida salbiy yoki butunlay boshqa ma’noni anglatishi mumkin. Bu esa tarjimada semantik noaniqlik, anglashilmovchilik va hatto noto‘g‘ri mazmun uzatishga olib keladi. Shuningdek, lahjalarning ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va kino san’atida keng qo‘llanilishi ularni bilishni yanada dolzarb qiladi. Shu bois arab tilini o‘rgatuvchilar, tarjimonlar va tilshunoslar lahjaviy tafovutlarni chuqur o‘rganib, amaliy faoliyatda ularni hisobga olishlari zarur.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, arab lahjaları orasıdagı bu tafovutlar oddiy fonetik yoki leksik farqdan tashqari, har bir jamiyatning tarixiy tajribasi va madaniy identiteti bilan bevosita bog‘liq. Shu bilan birga, bizning kuzatishlarimiz lahjalardagi so‘nggi o‘zgarishlar, ya’ni globalizatsiya va ommaviy kommunikatsiya vositalari ta’sirida yuz berayotgan yaqinlashuv va zamonaliviy atamalarning umumlashuvi jarayonini ham ko‘rsatdi.

Ushbu natijalar arab tilini xorijiy til sifatida o‘rgatishda, tarjima jarayonlarida va sosiolingvistik tadqiqotlarda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, o‘zbek arabshunoslar uchun har bir mintaqaviy lahjaning xususiyatlarini chuqur o‘rganish, madaniyatlararo muloqotni samarali tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega.

**Natijalar.** Tadqiqot davomida quyidagi asosiy ilmiy natijalarga erishildi:

Misr, Livan, Xalij va Mag‘rib lahjaları o‘rtasida fonetik jihatdan sezilarli tafovutlar mavjudligi aniqlandi. Ayniqsa, ba’zi undosh tovushlarning talaffuzi har bir mintaqada o‘ziga xos tarzda shakllangani kuzatildi.

Har bir lahjaning o‘ziga xos so‘z boyligi mavjud bo‘lib, ba’zi umumiyl tushunchalarni ifodalashda har xil leksik birliklardan foydalanilishi aniqlandi. Bu holat turli mintaqalarda aloqa qilishda ba’zida tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Ba’zi lahjalarda fe’l zamонлари va affikslarda fusha tilidan chetlanish holatlari mavjud. Xususan, Mag‘rib va Xalij lahjalarida замон va shaxs ko‘rsatkichlari soddallashtirilgan va og‘zaki nutqqa moslashgan.

Lahjalarning shakllanishida tarixiy omillar (masalan, mustamlakachilik davri), geografik holat, diniy ta’sirlar va zamonaliviy

kommunikatsiya vositalarining roli katta bo‘lgani aniqlandi.

Fusha tili va mintaqaviy lahjalarning birqalikda mavjudligi arab tilida kuchli diglossiya holatini saqlab qolayotganini ko‘rsatadi. Har bir lahja kundalik hayotda faol qo‘llanilsa-da, rasmiy, yozma va ta’limiy sohalarda fusha tilining ustuvorligi saqlanmoqda.

Lahjalardagi farqlar til o‘rganish jarayonida muayyan qiyinchiliklar tug‘dirishi, tarjimada esa noaniqlik va semantik noto‘g‘riliklarga sabab bo‘lishi mumkinligi aniqlashtirildi. Bu esa til o‘rgatuvchi va tarjimonlar uchun lahjaviy tafovutlarni hisobga olish zarurligini taqozo etadi.

**Xulosa.** Ushbu maqolada arab tilining to‘rtta asosiy mintaqaviy lahjasи – Misr, Livan, Xalij va Mag‘rib lahjalari fonetik, leksik va morfologik jihatdan taqqoslab o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdi, bu lahjalar o‘ziga xos fonetik va grammatik tizimlarga ega bo‘lib, ularning shakllanishida ko‘p asrlik tarixiy, madaniy va sotsiolingvistik omillar muhim rol o‘ynagan.

Arab dunyosidagi kuchli diglossik muhit natijasida fusha tili bilan bir qatorda mintaqaviy lahjalar ham faol yashab kelmoqda. Har bir lahja o‘z mintaqasida asosiy aloqa vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda va shu bilan birga, fusha tilining adabiy, rasmiy va ilmiy sohalardagi nufuzi saqlanib qolmoqda.

Tadqiqotda aniqlangan fonetik va leksik tafovutlar arab tili o‘rganilayotgan muhit, o‘rganuvchining maqsadi va kommunikativ ehtiyojlariga qarab mos

yondashuvni talab etishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, arab tilini chet tili sifatida o‘rgatuvchi o‘quv dasturlarida lahjalarning asosiy xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Shuningdek, lahjalarning tarjima amaliyotidagi o‘rni ham beqiyosdir. Ko‘plab matnlar va og‘zaki nutqlarda fusha emas, aynan lahjaviy ko‘rinishlar ishlatiladi. Bu esa tarjimonlar uchun qo‘srimcha til kompetensiyalarini shakllantirish zaruratini tug‘diradi.

Umuman olganda, arab lahjalari arab tili tizimining ajralmas va jonli qismidir. Ularni o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, tarix va sotsiologiya kabi fanlar uchun ham muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdujabborov A. Arab tili. –T.:Toshkent islam universiteti, 2007. – 307 b.
2. Astanova G.A. Arab tilidan boshlang‘ich kurs. O‘quv qo‘llanma. – B.:“Durdona” nashriyoti, 2023. 100 b.
3. Mamatoxunova D.K., Mirziyotov Sh.M. Arab filologiyasiga kirish. O‘quv qo‘llanma. – T.:Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2010.
4. Sibavayh. Al-Kitab. Tahrir: Hamid al-Din, 2009.
5. <https://makkahnewspaper.com/>
6. <https://www.qpedia.org//indexh>
7. <https://earabic.io>
8. <https://tarjama.com>

